TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Saxobidinova Ozodaxon Isomidinovna
"Aniq fanlar" kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: sahobidinova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamoniaviy o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogikda yangicha yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari, mamalakatimizda raqamli ta’lim muhitini yaratishdagi imkoniyat va sharoitlar ilmiy tahlil etilgan.

Kalit sozlar: Iped, elektron doska, raqamli ta’lim muhiti, inson kapitali, psdagogik texnologiya, ta’lim jarayoni, loyihalash texnologik yondashuv.

Abstract: This article scientifically analyzes the use of advanced pedagogical technologies in modern education, the possibilities of digital technologies in organizing the educational process based on a new approach to pedagogy, as well as the possibilities and conditions for creating a digital educational environment in our country.

Keywords: iPad, electronic board, digital educational environment, human capital, pedagogical technologies, educational process, project-technological approach.

«Kelajakning raqamli sanoatini yaratish» - inson kapitalini rivojlantirish darajasini oshirish orqali mamlakatni raqamli transformatsiyasini ishga tushirishni, ta’limda tezkor sur’atlarda raqamli o‘zgartirishni talab qiladi. Bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart-soatlari paydo bo‘ldi. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovasion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va IT- kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda Kelajakning inson kapitalini rivojlantirish darajasini oshirish orqali mamlakatni raqamli transformatsiyasini ishga tushirishni, ta’limda tezkor sur’atlarda raqamli o‘zgartirishni talab qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizning har sohada jahon maydonida yetakchilik qilayotgan g‘oya va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatiga ega qudratli davlatga aylanganligini faxr bilan e’tirof etish mumkin. Jumladan, raqamli iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarda o‘zining cheksiz imkoniyatlar maydoni ekanligini namoyon qilganligi bois, bizning davlatimizda ham bu yo‘nalishlarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, iqtisodiyot har sohaning asosi, richagi va harakatlantiruvchi kuchidir. Shu jumladan, pedagogikaning ham. Chunki ta’lim-tarbiya jarayonining iqtisodiyotga bog‘liqligi, ishlab chiqarishning muhim omilligi barcha davlat hujjatlarida yaqqol belgilab qo‘yilgan.

Bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart- soatlari paydo bo‘ldi. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi. o‘qituvchining qanchalik zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi o‘zgartirilishi shart, chunki talabalarga ortiq an’anaviy uslsubda o‘qishni hohlaydilar va o‘qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o‘qitishni davom ettirishlari kerak emas.

Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy

talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovasion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va IT-kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlar ini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda Professor-o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasi va qanchalik zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi ta’lim va tarbiya birligi prinsipi asosida o‘zgartirilishi shart.

Jahon ta’lim tizimida texnologik yondashuvga asoslangan innovasion-kreativ muhitni qaror toptirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik va prognostik kompetentlikni rivojlantirish, refleksiv yondashuv asosida darslarni tahlil qilish malakalarini shakllantirishning texnologiyalari ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etish, maxsus-metodik kompetentlikni rivojlantirish, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida o‘quv materiallarini strukturalashtirish, o‘qitish jarayonini loyihalashga tayyorlash, o‘qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil malakalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahonda texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish, interfaol o‘qitish texnologiyalarini dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llash jarayonlarini intensiv loyihalashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni dars jarayonini loyihalash va rejalashtirishga tayyorlash, axborot-tahliliy kompetensiyasini rivojlantirish, texnologik yondashuvning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda darsni tahlil etish malakalarini rivojlantirish bo‘yicha ham ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning darslarini tahlil qilish, kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, kredit-modul tizimini o‘qitish jarayoniga joriy etish modeli va mexanizmlarini ishlab chiqishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish” kabi vazifalar belgilab berildi. Bu esa, texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda darsni tahlil qilish malakalarini shakllantirishning didaktik xususiyatlarini aniqlashtirish jarayonni amalga oshirishning tashkiliy modeli va mexanizmlarini takomillashtirish sharoitlarini kengaytiradi.

Ma’lumki, bugungi kunda har bir OTM kompyuter sinflari hamda mutaxassislar bilan yetarli darajada ta’minlangan. Biroq bu kabi sharoitlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish uchun o‘qituvchining o‘zida AKT yoki raqamli o‘qitish usullariga motivatsiya yetishmayapti. Natijada ayrim o‘qituvchilar faqatgina ochiq darslarda(shunda ham o‘zgalarning ko‘magi ostida) gina AKT dan foydalanib dars o‘tmoqdalar. Bu holat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ma’lum bir to‘siqni yuzaga keltiradi. O‘z o‘rnida yoshlarning ko‘z o‘ngida o‘qituvchining mavqeni saqlab qolish masalasi ustida ishlash talab etilmoqda.

Pedagogik texnologiyalar sinf-dars tizimini turli yo‘nalishlarda takomillashtirgan holda o‘qituvchi-talaba faoliyatini “sub’yekt-sub’yekt” munosabatlari qonuniyatlari asosida tashkil etishni ifodalaydi, ya’ni bu o‘rinda hamkorlik pedagogikasi ta’lim-tarbiya mazmunini innovasion yondashuvlar asosida boyitib boradi. Pedagogik jarayon texnologik yondashuv mazmunida o‘z

yechimini topadi. Bu o‘rinda pedagog-olim M.Ochilov “Agar jamiyat davlat buyurtmasidan ta’lim tizimining maqsad-vazifalariga, undan shu o‘quv yurtining, o‘quv predmetining uning bo‘limlari, mavzulari, ayrim o‘quv masalalarining maqsadi, vazifasiga qarab berilsa, o‘ziga hos maqsadlar tizimi hosil bo‘ladi,”- deb ko‘rsatgan.

1. Maqsadlarni ta’lim mazmuniga binoan belgilash.
2. Ta’lim maqsadini o‘qituvchi faoliyati orqali aniqlash.
3. Ta’lim maqsadlarini talaba shaxsining ruhiy, aqliy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash.
4. Ta’lim maqsadini talabaning o‘quv–bilish faoliyati orqali qo‘yish.

Demak, bizning nazarimizda pedagogik texnologiyaning mohiyati ta’lim-tarbiya maqsadini amalga oshirishning maqbul yo‘lini aniqlashdan iborat. Bu degani, o‘quv materialining mazmun-mohiyatini puxta egallagan, pedagogik texnika va texnologiyani uyg‘unlashtira oladigan o‘qituvchigina dars jarayonining mas’uliyatini his etgan holda, uning maqsadga erishish yo‘lida zarur shart-sharoitlarni yarata oladi. O‘qituvchining maqsadi talaba maqsadi bilan uyg‘unlashadi. Bu jarayon, pedagogik texnologiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning eng asosiy belgilaridan biri, talabaning faolligini ta’min etadigan metodlarni, axborot texnologiyalari vositasida samarali qo‘llagan holda, didaktik maqsadga erishish. Shunga ko‘ra, pedagogik texnologiya birinchi galda ta’lim jarayonini ilmiy-amaliy asosda qurishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchi va talaba munosabati o‘zaro hamkorlik hamda hamfikrlilik prinsipiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Intant Septia Latifa. The analyses of teachers lesson plan through behavioral objektives theory.// Atlantic press № 9. 2017.-6-10 p.
2. Karimova G.Q. Texnologik yondashuvjarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari.// Zamonaviy ta’lim. №4. 2019.- 35-39
3. Kovalenko O.Yu. Innovasionnыye formы podgotovki uchiteley v SSHA.// Molodoy uchennыy № 10.2013.-S.506-509/ http: // www/moluch.ru /authors / 10687/
4. Kryukova Ye.A. Lichnostno –razvivayuщiye obrazovatelnыye texnologii: priroda, proyektirovaniye, realizatsiya: Monografiya.- Volgograd: Peremena, 1999.- S.196.
5. Leontyev D.A. Syennost kak mejdissiplinarnoye ponyatiye: opыt mnogomernoy rekonstruksii. // Voprosы filosofii.-№ 4